

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



«TASDIQLANDI»

Namangan davlat pedagogika instituti  
rektori y. b. *M. R. Qodirxonov*

2023-yil

**60112200 – JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI BO'YICHA IKKINCHI  
VA UN DAN KEYINGI  
TA'LIMGA KIRUVCHILAR UCHUN  
"MUTAXASSISLIK FANI" DAN  
SINOV DASTURI, SAVOLLAR BANKI VA BAHOLASH MEZONI**

**NAMANGAN – 2023**

## ANNOTATSIYA

Jismoniy madaniyat mutaxassisiga kasb tayyorgarligining nazariy va amaliy materiallarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib Jismoniy tarbiya jarayonini pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot jismoniy tarbiyalari asosida metodik muammolarni hal etish, jismoniy madaniyat fani o'quv xonalarini va sport zalari xamda inshootlarini talab darajasida jixozlash va uni nazorat, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini pedagogik-psixologik bilimlarni maktab o'quvchilarida umumjismaniy, umumkasbiy ko'nikma va sog'lomashtirish malakalarni shakllantirish to'g'risida talabalarga chuqur bilimlar berish asosiy maqsaddir.

60112200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar Jismoniy madaniyatga oid nazariy asoslarini o'z ichiga oladi.

Mazkur savollar O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartiga asoslangan xolda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga mos ravishda, amaldagi na'munaviy dasturlar asosida tuzildi.

**Tuzuvchilar:**

**PhD. M.Azizov.**

**Katta oqit.Sh Satiyev**

**Taqrizchi:**

**p.f.n., dotsent. N.N.Azizov**

Dastur NamDPI Pedagogika fakulteti Amaliy va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida 2023 yil 27 iyun dagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

## KIRISH

Ushbu dastur 60112200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar bo'lajak jismoniy madaniyat fani o'qituvchilarini pedagogik-psixologik bilimlarni maktab o'quvchilarida umumjismaniy, umumkasbiy ko'nikma va sog'lomashtirish malakalarni shakllantirish jarayonida tadbiq etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot jismoniy tarbiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; , jismoniy madaniyat fani o'quv xonalarini va zal xamda inshootlarini talab darajasida jixozlash va uni nazorat; maktablarda jismoniy tarbiya darslarini o'qitishni samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini shakllantirish umumiy qonuniyatlarini o'rgatadi.

### Asosiy qism:

Maktablarda jismoniy tarbiya darslarini o'qitishni samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini shakllantirish **vazifalarini** bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- jismoniy tarbiya fanining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi va fan o'qituvchisining faoliyati, o'quv xonalarini va zal xamda inshootlarni moddiy texnik ta'minoti to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- jismoniy tarbiya ta'limining rivojlanishi va istiqbollari, jismoniy tarbiya fanida didaktik tamoyillar, dars shakllari, metodlari, jismoniy tarbiya fanida tuziladigan o'quv me'yoriy xujjatlar, davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilish mezonlari va unga qo'yiladigan talablarni, metodik ishlarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; o'quv jarayonini tashkil etish va jismoniy tarbiya faniga oid rejalashtiruvchi xujjatlarni ishlab chiqish, jismoniy tarbiya fani darslarini olib borish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

- talaba amaliy malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; jismoniy tarbiya fani mashg'ulotlarini o'tkazish; o'quv jarayonini rejalashtirish; o'quvchilar bilimini

baholay olish; mahalliy, tabiiy materiallardan foydalanish; darslarni tahlil qilish; darslarni pedagogik va axborot jismoniy tarbiyalar asosida tashkil qilish va o'tkazish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

60112200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi dan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilar bilimlariga qo'yiladigan talablar:

- Jismoniy madaniyat jarayoni va uni rejalashtirish;
- Jismoniy madaniyat uslubiyatining xususiyatlari;
- Jismoniy madaniyat va sport turlari bo'yicha jixozlar va ulardan foydalanish va ularning xossalari;

**Fanni o'qitishdan maqsad** - bo'lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish orqali, kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega qilish qatorida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalana olish kabi amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.

#### **jismoniy tarbiya ta'limi metodikasi fani bo'yicha umumiy mavzular:**

jismoniy tarbiya fani va uning vazifasi, maktab o'quv rejasida jismoniy tarbiya fanining qo'yilishi, uning tarixiy taraqqiyoti, jismoniy tarbiya fanining amaliy fanlar blok modulidagi fanlar va o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim bilan integratsiyalash, 1-4 sinflarda jismoniy tarbiya fani mazmuni, 5-7 sinflarda jismoniy tarbiya fani mazmuni, 8-11 o'quvchilarini jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish, ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish va boshqarish hamda jamiyatning ijtimoiy qatlamlari orasida sog'lom turmush madaniyatini targ'ib qilish va keng ommalashtirish kabi bilimlarini shakllanishini o'rganishga ko'maklashadi.

jismoniy tarbiya fanidan ilmiy nazariy tadqiqotlar, jismoniy tarbiya ta'limining didaktik tamoyillari, didaktik tushunchalar, jismoniy tarbiya ta'limini tashkil qilishning didaktik tizimlari, jismoniy tarbiya fanida o'qitish shakllari, jismoniy tarbiya fani o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi, jismoniy tarbiya fanida o'qitish metodlari, jismoniy tarbiya fanida yangi pedagogik

texnologiyalarni qo'llash, jismoniy tarbiya fani darslarida amaliy darslarni tashkil qilish va o'tkazish, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan kvalifikatsion talablar, " jismoniy tarbiya " yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallaashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, jismoniy madaniyat yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallaashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

jismoniy tarbiya faniga oid rejalashtiruvchi xujjatlar, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi, jismoniy tarbiya bo'limini o'qitish metodikasi, jismoniy madaniyat fani o'quv xonalarini va sport zallari xamda inshootlarini talab darajasida jixozlash va uni nazorat qilish, jismoniy tarbiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash, o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishda fanlararo bog'lanishlardan foydalanish, jismoniy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish, jismoniy tarbiya fanida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi, jismoniy tarbiya fanida metod birlashmalar faoliyatini tashkil qilish

#### **Asosiy qism**

**1-mavzu1-mavzu: Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari.**

Bo'lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilariga o'quv muassasalari maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktab, akademik litsey hamda kasb-xunar kollej o'quvchilarini jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish hamda sport musobaqalari, sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish hamda sinfdan tashqari to'garaklarni tashkil qilish kabi bilimlarini shakllanishini haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

**2-mavzu: O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimini rivojlanishining umumiy tavsifi.**

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kursida uchraydigan atamalar hamda jismoniy tarbiya sifatlarini, metodlarni, printsiplarni, mazmunini, Dastlabki asosiy tushunchalar: “Jismoniy tarbiya”, “Jismoniy madaniyat tizimi”, “Jismoniy madaniyat”, “Jismoniy rivojlanish”, “Jismoniy ta’lim”, “Jismoniy tayyorgarlik” “Jismoniy kamolot” “Sport” atamalarini bilishi lozim. .

Mamlakatimizda jismoniy madaniyat tizimi haqida, jismoniy madaniyat tizimining printsiplariga tavsif tushunchalari haqida nazariy ma’lumotlarga ega qilish.

**3-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi xukumatining jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha qabul qilgan hujjatlarining ahamiyati..**

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonuni va unda belgilangan moddalar hamda ularning mazmunini anglatish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish haqida” gi Farmoni, “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi Vazirlar Maxkamasining Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishlok joylardagi bolalar sporti ob‘ektlarida band bo‘lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz respublika sport musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risida” gi qarori, “Sport inshootlari, jixozlaridan samarali foydalanish va ularni saqlash to‘g‘risida” gi namunaviy Nizom, Vazirlar Maxkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Kontseptsiyasi va boshka bir kancha jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid direktiv xujjatlarni urni hamda ahamiyati haqida nazariy ma’lumotlarga ega qilish.

**4-mavzu: Jismoniy madaniyatning jamiyatdagi vazifalari va shakllari.** Jismoniy tarbiyaning tarixiy xususiyatlari: jismoniy tarbiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi sabablari: jismoniy madaniyat tizimi ma’lum ijtimoiy tashkilot sifatida. Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti uchun davlat direktiv xujjatlarining

ahamiyati; jismoniy madaniyat tizimining maqsad va vazifalari (sog'lomlashtirish, ta'limiy, tarbiyaviy masalalari). Jismoniy madaniyat tizimining qonun-qoidalari: sog'lomlashtirishga yo'naltirilganligi; shaxsning xar tomonlama rivojlantirish, jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog'likligi printsipti. Jismoniy tarbiyadagi yo'nalishlari: sport mashg'ulotlari va umumiy jismoniy tayyorgarlikning yetakchi vazifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

**5-mavzu: Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi.** Jismoniy mashqlar, jismoniy mashqlarning vujudga kelishi. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakli. jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi. Jismoniy mashqlarning tarixiy klassifikatsiyasi. Harakatli o'yinlar. Sport o'yinlari. Gimnastika va uning turlari. Turizm jismoniy tarbiya vositasi sifatida.

**6-mavzu: Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillar.**

Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillar jismoniy tarbiya vositasi sifatida. Jismoniy tarbiyaning belgilovchi omillari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish

**7-mavzu: Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari.**

Qonun-qoidalarini turkumlarga ajratish: harakatlarga o'rgatish jarayonining xususiyatlari, qonun-qoidalarining o'zaro bog'likdigi.

“Onglililik va faollik” printsipti, “Ko'rgazmalilik” printsipti, “Muntazamlilik” printsipti, “Tushunarli va individuallashtirish” printsipti, “Talablarni asta sekin va tobora oshirib borish” printsiplariga tavsif hamda Tamoyillarni o'quvchi-yoshlar va bolalarni o'qitishda, amalga oshirishning o'ziga xosliklari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

**8-mavzu: Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan jismoniy tarbiya metodlari.**

Metodlarni tanlashga umumiy talablar: ilmiy asoslanganligi; o'qitishni qo'yilgan vazifalariga ularning mosligi; o'qitish printsiplariga, o'quv materialini o'ziga xosligiga, o'quvchilarning shaxsiy va guruhli tayyorligiga jismoniy madaniyat o'qituvchisining (tarbiyachining) individual xususiyatlari va imkoniyatlariga, mashg'ulotlar sharoitlariga mos kelishi. So'z, ko'rgazmalilik, o'yin, musobaqa va aylanma trenirovka metodlaridan foydalanishni ahamiyati, so'zning mazmuniy vazifasidan foydalanish

metodikasi va jismoniy tarbiyada terminologiya muammosi, so'zning emotsional vazifasidan foydalanish metodikasi.

Amaliy mashg'ulotlar talablari bo'yicha jismoniy madaniyat va sportning asosiy tushunchalari, jismoniy madaniyat tizimining umumiy printsiplari va uning amalga oshirish yullari, jismoniy madaniyat vositalari, jismoniy mashqlar texnikasi, jismoniy mashqlarni turkumlarga bulinishi, jismoniy mashqlar mashg'ulotlarining tuzilishi va mazmuni, kishlok joylarda jismoniy madaniyat ishlari va ularning xolati, o'quv muassasalarida jismoniy madaniyat mashg'ulotlarini tashkil qilish va utkazish metodikasi, jismoniy madaniyat darsning shakllari va turlari hamda jismoniy tarbiya sport ishlarini rejalashtirish amaliy urgatiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kursatma va **tavsiyalar**

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan jismoniy tarbiya metodlari.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan jismoniy tarbiya metodlari.

Mehnatni ratsional tashkil etishda jismoniy tarbiyani ahamiyati.

Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot uslubari.

Jismoniy tarbiya nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot uslubari.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimini rivojlanishining umumiy tavsifi

Jismoniy tarbiya jarayoning shaxsga yo'naltirilganligi

Mehnatni ratsional tashkil etishda jismoniy tarbiyani ahamiyati.

Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi.

Jismoniy tarbiya vositalari

Jismoniy tarbiya vositalari (jismoniy mashqlar)

Jismoniy tarbiya vositalari (tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari)

Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari

Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari

Jismoniy tarbiya metodlari

Jismoniy tarbiya metodlari

Harakatlarga o'rgatish metodikasi va nazariy asoslari

Harakatlarga o'rgatish metodikasi va nazariy asoslari

Harakatlarga o'rgatish bosqichlarining tuzilish asoslari.

Harakat malakalarining tashkil etish qonuniyatlari.

Jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, Chidamlilik) ni tarbiyalash uchun mashqlar majmuasini tuzish.

Jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik) ni tarbiyalash uchun mashqlar majmuasini tuzish.

Jismoniy sifatlar (chaqqonlik, egiluvchanlik) ni tarbiyalash uchun mashqlar majmuasini tuzish.

Jismoniy sifatlar (Chidamlilik) ni tarbiyalash uchun mashqlar majmuasini tuzish.

**60112300– jismoniy tarbiya ta'limi yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimini rivojlanishining umumiy tavsifi
2. Jismoniy tarbiya ta'limi metodikasi fani va uning vazifasi
3. Jismoniy tarbiya fani darslarida texnik vositalardan foydalanish.
4. Jismoniy tarbiya fanining didaktik tamoyillari.
5. Jismoniy tarbiya fanini o'qitish metodlari amaliy, muammoli. jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.
6. Maktab o'quv jarayonida jismoniy tarbiya fanining quyilishi jismoniy tarbiya fanida rejalashtiruvchi xujjatlar va har birini izohlab bering.
7. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda jismoniy tarbiya fanini ta'limiga taallukli masalalar.
8. jismoniy tarbiya fanini o'qitish shakllari.
9. jismoniy tarbiya fanini o'qitish metodlari.
10. jismoniy tarbiya fanini o'qitish metodlari: amaliy va nazariy
11. jismoniy tarbiya fani (5-9 sinf) dasturlarini mazmuni.
12. jismoniy tarbiya fani dasturi, mazmuni va yo'nalishi.
13. Sport zallarda texnik xavfsizlik va sanitariya gigiena talablari.
14. Suhbat metodini yoritib bering.
15. O'qitishning frontal, zveno, yakka-yakka, aralash formalari qay vaqtda qo'llaniladi.
16. jismoniy tarbiya fanini o'qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat.
17. O'quv ustaxonasini jihozlashda nimalarga e'tibor beriladi.
18. jismoniy tarbiya fanini mazmuni nimalardan iborat.
19. Uzluksiz ta'lim deganda nimani tushunasiz.

20. Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish ish ob'ektini tanlash.
21. jismoniy tarbiya fani darslarining moddiy texnika bazasi.
22. jismoniy tarbiya fanida qanday o'qitish formalarini bilasiz.
23. jismoniy tarbiya ta'limi metodikasi qanday asosiy masalalarni hal qiladi.
24. jismoniy tarbiya yo'nalishi bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
25. jismoniy tarbiya fanida pedagogic amaliyotini tashkil etish tartibi.
26. jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.
27. jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi.
28. jismoniy tarbiya fanida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi.
29. Metod birlashmalar va ularning faoliyati.
30. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish
31. O'qituvchining jamoaviy uslubiy ishlari. Ochiq darslar va ularni o'tkazish.
32. Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar.
33. Kurs ishini bajarish ketma-ketligi.
34. Bitiruv malakaviy ish mazmuni va unda qo'yiladigan muammolarni hal qilish metodikasi.
35. Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari.
36. Pedagogik amaliyot turlari: passiv, aktiv, tanishuv va uzluksiz.
37. Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar.
38. Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasi.
39. Amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar.
40. Jismoniy tarbiya jarayoning shaxsga yo'naltirilganligi
41. Mehnatni ratsional tashkil etishda jismoniy tarbiyani ahamiyati
42. Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi
43. Jismoniy tarbiya vositalari
44. Jismoniy tarbiya vositalari (tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari)
45. Jismoniy tarbiya vositalari (jismoniy mashqlar)
46. Harakatlarga o'rgatish metodikasi va nazariy asoslari
47. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish nazariy va amaliy asoslari (kuch sifati)
48. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish nazariy va amaliy asoslari (chaqqonlik sifati)
49. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish nazariy va amaliy asoslari (egiluvchanlik sifati)
50. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish nazariy va amaliy asoslari (tezkorlik sifati)
51. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish nazariy va amaliy asoslari (chidamlilik sifati)
52. Jismoniy tarbiya nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot uslubari

**60112300– Jismoniy madaniyatyo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar uchun mutaxassislik fanidan davogarlar bilimini baholash**

**MEZONLARI:**

Mazkur yo'nalish bo'yicha kirish sinovi mavjud o'quv dasturlari asosida tuzilgan savollar asosida amalga oshiriladi.

Bilimlarni baholash bo'yicha baholash: 5 – "a'lo", 4 – "yaxshi", 3 – "qoniqarli", 2 – "qoniqarsiz" baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 3 ta savol mavjud bo'ladi.

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 5 bahogacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 4 bahogacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 3 bahogacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 2 bahogacha qo'yiladi.

Variandagi uchinchi savolga berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 5 bahogacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 4 bahogacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 3 bahogacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 2 bahogacha qo'yiladi.

60112300– Jismoniy madaniyatyo'nalishi dan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezonini Amaliy va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi 2023 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2016 yilning asosiy yakunlari va 2017 yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'naltirishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi".
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston respublikasi prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

#### Asosiy adabiyotlar:

3. Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Учебное пособия Тошкент УзГосИФК 2007 г.
4. Саломов Р.С. Спорт машгулотнинг назарий асослари - Тошкент., Укув кулланма УзДЖТИ, 2005 йил - 238 б.
5. Махкамджанов К.М. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси Тошкент., дарслик "Иктисод -молия" 2008 йил - 300 б.
6. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Watt

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Ш.Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Узбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент -"Узбекистон" -2016.56 б.
8. Ш.Мирзиёев Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз. Тошкент -"Узбекистон" -2016.488 б.
9. Ш.Мирзиёев Қонун устуворлиги ва инсон манфаатлари таъминлаш- юрт тараққиети ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент - "Узбекистон" - 2016.488 б.
10. Ш.Мирзиёев Танкидий тахлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик коидаси булиши керак. Тошкент -"Узбекистон" -2017.104 б.
11. 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши буйича Х,аракатлар стратегияси. Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
12. Ботиров Х.А. Жисмоний тарбия ва спорт тарихи. Т. "Укитувчи" 1993 й.
13. Хужаев Ф. Узбекистонда жисмоний тарбия. 1997 й.
14. Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. укув кулланма, Тошкент., Уз ДЖТИ, 2005 й - 171 б.
15. Махкамджанов К, Туленова Х.Б. Мактабгача таълим муассасалари учун умумий ва кенгайтирилган "Жисмоний тарбия" дастури. Илм-зиё Тошкент., 2006 й

16. Холдоров Т., Туленова Х.Б. Жисмоний маданият, жисмоний тарбия, спорт, туризм, халк миллий уйинларининг назарий ва амалий асослари. ТДТУ босмахонаси, 2007 й.
17. Туленова Х.Б. Малинина Н.Н., Умумривожлангирувчи машкарни ургатиш методикаси, укув кулланма ТДПУ, 2005 й.
18. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти. укув кулланма Тошкент., УзДЖТИ, 2005 йил - 300 б.
19. Thomas H. Sawyer, Lawrence W. Judge The Management of fitness, Physikal Activity, Recreation, and Sport © 2012 Sagamore Publishing LLC All ringhts reserved.
20. Матвеев Л.Р. Теория и методика физического воспитание - Учебник Москва «Физкультура и спорт» - 2005 г.
21. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания. Москва. Академия. 2003- 480 стр.

Axborot manbalari

22. [www.tdou.uz](http://www.tdou.uz)
23. [www.Dedaso.uz](http://www.Dedaso.uz)
24. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
25. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
26. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
27. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
- [www.eov.uz](http://www.eov.uz)



16. Холдоров Т., Туленова Х.Б. Жисмоний маданият, жисмоний тарбия, спорт, туризм, халк миллий уйинларининг назарий ва амалий асослари. ТДТУ босмахонаси, 2007 й.
17. Туленова Х.Б. Малинина Н.Н., Умумривожлангирувчи машкарни ургатиш методикаси, укув кулланма ТДПУ, 2005 й.
18. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти. укув кулланма Тошкент., УзДЖТИ, 2005 йил - 300 б.
19. Thomas H. Sawyer, Lawrence W. Judge The Management of fitness, Physikal Activity, Recreation, and Sport © 2012 Sagamore Publishing LLC All ringhts reserved.
20. Матвеев Л.Р. Теория и методика физического воспитание - Учебник Москва «Физкультура и спорт» - 2005 г.
21. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания. Москва. Академия. 2003- 480 стр.

Axborot manbalari

22. [www.tdou.uz](http://www.tdou.uz)
23. [www.Dedaso.uz](http://www.Dedaso.uz)
24. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
25. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
26. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
27. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
- [www.eov.uz](http://www.eov.uz)